O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E.Po'latov
2024 yil "____" 08

Ro'yxatga olindi: №BD-61010200-2.02
2024 yil "29" 08

INTELEKTUAL MULK MUHOFAZASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000 000	- Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1010 000	- Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishi:	61010200	- Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi *IMM204*	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov	**Ta'lim tili** O'zbek/rus		**Haftadagi dars soatlari** 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Intelektual mulk muhofazasi	60	60	120

2. I. Fanning mazmuni

Ushbu fan jamiyatni demokratlashtirish va yangilashda fuqarolik jamiyatiga o'tish, barcha sohalarda qonun ustivorligini ta'minlash, mamlakatni modernizatsiyasi va isloh etishda barcha sohalar kabi mamlakatimizda intelektual mulkni rivojlantirish, ayniqsa uni muhofaza etish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dastur O'zbekistonda intelektual mulk bo'yicha bilim bilan bir qatlrda uning mamlakatimizda huquqiy muhofazasi haqidagi masalalarni qamraydi.

O'QUV FANINING MAQSAD VA VAZIFASI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni intelektual mulk huquqiy himoyasi asoslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va bu sohadagi qoidalar bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – intelektual mulk mohiyati, uning muhofazasini qonuniy himoyalanish, patent ishlari, ixtirochilik, foydali modellar, sanoat namunalari, tovarlar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlar kelib chiqish joylarining nomlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini, firma nomlari haqida ma'lumot va ularni tasdiqlovchi hujjatlar, O'zbekiston patent idorasi axborotnomasi va boshqalar haqida ma'lumotlar berish..

3. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu. Intelektual mulk muhofazasi fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Intelektual mulk umumiy tushunchasi, mohiyati va mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni. Intelektual mulkning asosiy manbai material bazasi uning yaratilishi bo'yicha O'zbekistondagi shart-sharoitlari. O'zbekiston o'zining intelektual mulkining rivojlanishida dunyo hamjamiyati bilan qadamma-qadam hamkorligi: Rio Deklaratsiyasi, Vena, Bazen konvensiyasi, Lokorno bitimi va h.k. Intelektual mulk muhofazasi fanining mohiyati, predmeti, maqsadi va vazifalari.

2-Mavzu. Intelektual mulkning strukturaviy tarkibi

Intelektual mulk strukturaviy tarkibi: sanoat mulki, nosanoat mulki, fan, adabiyot, san'at asarlari va ulardan foydalanish. Fan, adabiyot, san'at asarlari va ulardan intelektual mulk sifatida foydalanish.

3-Mavzu. Intelektual sanoat va nosanoat mulki

Sanoat mulki hisoblangan: ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqish joylarini nomlari, ratsionalizatorlik ishlanmalar tushunchalari. Nosanoat mulki: EHM dasturlari, EHM ma'lumot bazalari; integral mikrosxemalari, topologiyalari, seleksiya yutuqlari, firma nomlari haqida tushunchalar.

4-mavzu. O'zbekistonda intelektual mulk sohasining tashkillashtirilishi va boshqarilishi

O'zbekiston intelektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organi ekanligi. O'zbekiston Patent idorasining tashkil etilishi.Patent idorasining nizomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, intelektual mulk muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi.

5-mavzu. Intelektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari

O'zbekiston mustaqillik yillarida intelektual mulk huquqiy asoslarining yaratilishi. Intelektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari. O'zbekiston mustaqillik yillarida intelektual mulk muhofazasi huquqiy asoslarining yaratilishi.

Intelektual mulk huqquiy asoslari hisoblangan O'zbekiston Respublikasi qonunlari. Intelektual mulk muhofazasi huquqiy asoslari hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari: ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar ishlab chiqarish to'g'risida; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida; integral mikrosxemalar, topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida; seleksiya yutuqlari to'g'risida; firma nomlari to'g'risida; mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida umumiy ma'lumot va ularning mohiyati.

6-Mavzu. Patent tushunchasi, uning egasi, undagi mutloq huquq haqida

Patent tushunchasi, uning egasi, patent olish huquqi, mutloq huquq buzilishi hollari, patent olish uchun uning ekspertizadan o'tkazilishi va patent xujjatini berilishi va boshqa tushunchalar mohiyati.

7-Mavzu. Ixtiro va sanoat namunalarining tuzilishi tushunchasi

Ixtironing mazmuni, tushunchasi va tuzilishi. Qonunga muvofiq qurilmalar, usullar, moddalar mikroorganizmlarning shtamplari, o'simliklar va hayvonlar turlari yangi yoki avvaldan ma'lum bo'lgan, lekin yangi vazifada qo'llanilish ixtirolar sifatida tan olinishi. Ixtiro deb, tan olinadigan ob'ektlar to'g'risida. Ratsionalizatorlik ishlari, ularga talabnoma berish uning ko'rib chiqilish tartibi. Guvohnoma olish va amal etish muddati.

8-Mavzu. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarining patentga layoqatlik shartlari

Foydali modellar mazmuni, tushunchasi va ko'rinish hollari. Qurilmalarning konstruktorlik yangi bajarilishi foydali model bo'lishi, uning yangi bo'lish sanoatda qo'llash mumkin ekanligi, foydali modellar sifatida muhofaza qilinmaydigan ob'ektlar. Sanoat namunalari muzmuni, tushunchasi va tuzilishi. Sanoat namunasi buyumning (tovarning) tashqi original ko'rinish belgilari, uning badiy konstruktorlik yechimi ekanligi, yangi, orginal bo'lish, sanoat namunalari deb e'tirof etiladigan va etilmaydigan ob'ektlar.

9-Mavzu. Tovar va xizmat ko'rsatish belgilari tuzilishi, ularning mohiyati, ko'rinish hollari va tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish talablari

Tovar belgilari, tuzilish va mohiyati. Tovar belgisi sifatida tasviriy, so'zli, hajmiy va boshqa belgilar yoki ranglar birikmasidagi kombinatsiyalari bo'lishi mumkinligi. Tovar belgisini rasmiy ro'yxatdan o'tkazilishi, e'lon etilishi va guvohnoma berilishi tartibi. Tovar belgisi guvohnomasining amal qilishi muddati. Tovar belgisi deb e'tirof etilmaydigan belgilar.

Tovarlar kelib chiqqan joy nomlarini ko'rinish hollari, mazmuni to'g'risida. Tovar kelib chiqqan joy nomining jo'g'rofiy ob'ekt, uning alohida xususiyatlari yoki boshqa omillar, yohud tabiiy shartnomalar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanishi. Tovarlar kelib chiqqan joy nomi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan hujjatlar.

Xizmat ko'rsatish belgilarining tuzilishi va ko'rinish hollari. Xizmat ko'rsatish belgilari talabiga to'g'ri keladigan belgilar. Xizmat ko'rsatish belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan belgilar.

Tovar belgisini va xizmat ko'rsatish belgilarini, tovar kelib chiqish joy nomlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomaga qo'yilgan talablar. Tovar belgisi, xizmat ko'ratish belgilari va tovarlar kelib chiqishi joy nomlarining ustuvorlik tushunchasi haqida. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga, tovarlar kelib chiqish joy nomlariga talabnoma tuzish, topshirish, ekspertizadan o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazish, guvohnoma olish.

10-Mavzu: EHM uchun dasturlar va ma'lumot ba'zalari intelektual mulk ekanligi haqida

Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari zamonaviy intelektual mulk sifatida qaralishi. EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari tushunchasi, mohiyati. Turli ko'rinishdagi sistemalashgan ma'lumotlar – ma'lumot bazasi bo'lishligi, EHM dasturida: boshlang'ich tekst, ob'ektiv kod, adaptatsiya dasturi tushunchalari.EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma, uning tarkibiy qismi. Dastur yoki ma'lumotlar bazasini indentifikatsiya qilinadigan materiallar. Dastur yoki ma'lumotlar bazasi referatining tarkibi: nomi, annotatsiya, EHM tipi, dastur tili, boshqarish turi va versiyasi, operatsiya turi va versiyasi, hajmi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi to'g'risida Nizom.

9. Kak zaregistrirovat tovarnыy znak v Respublike Uzbekistan. – Tashkent, GPV RUz. 2006 g.

10. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Seleksiya yutuqlari to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 y. 29 avgust.

11. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Firma nomlari to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2006 y. 18 sentyabr.

12. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2006 y. 9 iyun.

13. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi axborotnomasi.

Internet saytlari:

http://www.el.tfi.uz – TMI elektron kutubxonasi
http://www.sies.uz – SamISI elektron kutubxonasi
http://lex.uz– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi
www.ziyonet.uz –ta'lim portali

8. Fanning o'quv dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024 yil "29" avgust dagi 1 - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan. (№ 1)

9. Fan/modul uchun mas'ullar:

Mamarasulov Zokirjon Erkinovich – SamISI, "Servis" kafedrasi dotsent v.b.

10. Taqrizchilar:

Xudayberdiev A.Yu. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, .t.f.n.

Fayzieva J.S.. - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Servis" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

	- intelektual mulklardan rasmiy foydalanish; intelektual mulk muhofazasini belgilangan tartibda amalga oshirish; patent, uning egasi, patent olish huquqi, mutloq huquq buzilishi hollari; patent olish uchun uning ekspertizadan o'tkazilishi va patent hujjatini olish; ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarining patentga layoqatlik shartlarini bajarish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***
5.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • interfaol keys-stadilar yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokama ishtirok etish; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; so'rov o'tkazish.
6.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.
7.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida (yangi tahriri)". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 y. 29 avgust. 2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2001 y. 30 avgust. 3. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar ba'zalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 1994 y. 6 may. O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar 05.04.2002. №364-11. 30.08.2002 y. №405-11. 4. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi. 2001 y. 30 avgust. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b. 6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU,2017–47 b. 7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b. 8. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 iyun 209 – sonli qarori:

	11-Mavzu: Integral mikrosxemalar topologiyalari tushunchasi va ularning intelektual mulk sifatida qaralishi Integral mikrosxemalar topologiyalari tushunchasi, mohiyati, huquqiy muhofaza qilinishi. integral mikrosxemaning mikroelektron buyum integral mikrosxema topologiyasi mikrosxema elementlarining fazoviy-geometrik joylashuvi ekanligi haqida. Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish ob'ektlari va shartlari. Topologiya, muallifi, topologiyadan foydalanish huquqi. **12-Mavzu: Firma nomlari tushunchasi va uni huquqiy jihatdan muhofaza etish** Firma nomlari. Firma nomlarining mutloq va huquqi davlat ruyxatidan o'tkazilgan vaqtda yuzaga kelishi. Qisqartirilgan firma nomi. Firma nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish. Firma nomlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talabnoma berish, ekspertizadan o'tkazilishi va guvohnoma berish tartibi haqida. **13-Mavzu: Seleksiya yutuqlari tushunchasi, huquqiy muhofaza qilish tashkiliy asoslari** Seleksiya yutuqlari. Seleksiya: zot, nav va shu sohadagi yutuqlarni huquqiy muhofaza qilish tashkiliy asoslari. Seleksiya yutug'iga patent olish. O'zbekiston Respublikasi «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi Qonunini mohiyati. **14-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunida intelektual mulk ob'ektlari** O'zbekiston Respublikasi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonunining mohiyati.Qonunga ko'rsatilgan asosiy tushunchalar: asar nusxasi, asarni omma oldida namoyish etish, asarni oshkor qilish, audiovizial asar, asarni tayyorlovchi, barchaning e'tiboriga yetkazish, yozuv, ijro, ijrochi, kabel orqali yuborish, manzarali – amaliy san'at asari, ma'lumotlar bazasi, muallif, omma oldiga ijro etish, ijaraga berish, reprografik takrorlash, retranslyatsiya takrorlash; fonogramma va uning nusxasi, tayyorlovchisi; xalq ijodiyoti asarlari, chop etish, efirga uzatish va boshqalar. **15-mavzu. Mualliflik huquqini amal qilinishi** Patent bojlari tushunchasi. Bojlar miqdori, to'lash muddati va qonundan kelib chiqqan boshqa shartlar. Patent bojlari miqdori, to'lash muddati, to'lovdan ozod etish, to'lov miqdorini kamaytirish hollari, belgilangan muddatda boj to'llanmasligi yuridik harakatni, shuningdek patentning amal qilishini tugatishi. Litsenziya tushunchasi, shartnomasi, ko'rinish hollari va ularning harakati. Litsenziya tushunchasi. Intelektual mulk savdodagi litsenziyasi, litsenziya shartnomasi, ko'rinish hollari va shartlari. Litsenziyalarning sotishga, olishga va almashtirishga bo'lgan takliflar tartibi, talablari. **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar** *Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:* 1. Intelektual mulk umumiy tushunchasi, mohiyati va mamlakatimiz

iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni.

2. Intelektual mulk va uning tasniflanishini o'rganish.

3. Intelektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlarini o'rganish.

4. O'quv – ixtiro talabnomasi bo'yicha zaruriy hujjatlarni tayyorlashni o'rganish.

5. Foydali modellar va sanoat namunalari bo'yicha o'quv – talabnoma tayyorlashni o'rganish.

6. Tovar belgilari tuzilishi va ularga guvohnoma olish uchun o'quv – talabnoma tayyorlashni o'rganish.

7. Xizmat ko'rsatish belgilari tuzilishi va ularga guvohnoma olish uchun o'quv – talabnoma tayyorlashni o'rganish.

8. Tovar kelib chiqishi, joy nomlari va ularga guvohnoma olish uchun o'quv – talabnoma tayyorlashni o'rganish.

9. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari zamonaviy intelektual mulk sifatida qaralishi va ularga talabnoma tuzish tartibini o'rganish.

10. Integral mikrosxemalar topologiyalari va ularga talabnomalar tuzish tartibini o'rganish.

11. Firma nomlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida talabnoma tuzishni o'rganish.

12. Seleksiya yutuqlari tushunchasi, huquqiy muhofaza qilish va ularga talabnoma tuzish taritibini o'rganish.

13. Mualliflik huquqini amal qilinishini o'rganish.

14. Patent bojlari tushunchasi. Intelektual mulk bo'lgan sanoat mulki ob'ektlari huquqiy muhofaza berish bilan bog'liq yuridik harakatlar uchun patent boji undirilishini o'rganish.

15. Litsenziya tushunchasi, shartnomasi, ko'rinish hollari va ularning harakati bo'yicha amaliy jihatlarini o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llaniladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Intelektual mulkning asosiy manbalari.
2. Intelektual mulk sifatida qaraladigan huquqiy hujjatlani tahlili qilish.
3. Fan, adabiyot, san'at asarlari intellektual mulk sifatida huquqiy muhofazasi.
4. Dunyoda intellektual mulk sifatida qaraladigan vositalarni tahlil qilish.
5. Patent idorasining Web sayti, uning tarkibiy qismi, bo'limlar faoliyati.
6. Rio Deklaratsiyasi, Vena, Bazen konvensiyasi, Lokarno bitimi
7. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining

mohiyati.

8. Ixtiro bo'yicha patent olishnining mohiyatini tushuntirish.
9. Ixtiro sifatida e'tirof etiladigan mahsulotlarni tadqiqot qilish.
10. Integral mikrosxemalar topologiyalari huquqiy muhofazasi.
11. Sanoat namunalarini intellektual mulk sifatida qaralishi.
12. Foydali modellar va ularga patent olish tartibi.
13. Ratsionalizatorlik ishlanmalari, ularni rasmiylashtirish, guvohnoma olish.
14. Tovarlar kelib chiqqan joy nomini ko'rinish hollari.
15. Tovar va xizmat ko'rsatish belgilari sifatida qaraladigan mahsulotlar.
16. Tovar va xizmat ko'rsatish belgilariga talabnomani rasmiylashtirish tartibi.
17. Tovarlar kelib chiqqan joy nomlari va ularni ro'yxatga olish taritibi.
18. EHM uchun dasturlarni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi.
19. Integral mikrosxemalar va topoplogiyalar uchun talabnomani to'ldirish tartibi.
20. Firma nomlari tushunchasi va ularni ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma topshirish tartibi.
21. Mualliflik huquqlari va ularni amal qilish muddatlarini o'rganish.
22. Elektron darslik yaratish tartibi.
23. Elektron darsliklar uchun talabnoma to'ldirish tartibi.
24. Patent boj stavkalarning har bir mulk ob'ekti bo'yicha stavkalarini hisoblash.

4. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- intelektual mulk muhofazasi fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari; intelektual mulkning mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni; intelektual mulkning asosiy manbasi, moddiy bazasi, uning yaratilishi; O'zbekiston o'zining intelektual mulkining rivojlanishida dunyo jamiyati bilan hamkorligi; O'zbekistonda intelektual mulk sohasining tashkillashtirilishi va boshqarilishi; O'zbekiston Patent idorasining xalqaro faoliyati, uning huquqlari va javobgarligi; intelektual mulk huquqiy muhofazasi asoslari; mualliflik huquqini amal qilinishi ***haqida tassavurga ega bo'lishi;***

- intelektual mulk muhofazasi bo'yicha Rio Dekloratsiyasi, Vena, Bazen konvensiyasi, Lokarno bitimini; sanoat mulki: ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqish joylarini nomlari, ratsionalizatorlik ishlanmalarini; nosanoat mulki: EHM dasturlari, EHM ma'lumot bazalari, integral mikrosxemalar, topologiyalar, firma nomlarini; fan, adabiyot, san'at asarlari va ulardan intelektual mulk sifatida foydalanishni; intelektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni; intelektual mulk muhofazasi huquqiy asoslari hisoblangan O'zbekiston Respublikasi qonunlarini; ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga patent, guvohnoma olish tartibi; tovar va xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqish joy nomlarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini; nosanoat intelektual mulkni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***